

## XOLID HUSAYNING "TOG'LAR HAM SADO BERDI" ROMANIDAGI SYUJET VA UNING ELEMENTLARI

**Qoraboyeva Muxlisa Po'lat qizi**

*O'zbek filologiyasi fakulteti: filologiya va tillarni o'qitish ta'lif yo'nalishi, 2-kurs talabasi*

*Ilmiy rahbar:*

**Go'zal Ximmatova Amirqulovna**

**Annotasiya:** Ushbu maqolada sujet va uning elementlari haqida nazariy ma'lumotlar beriladi hamda Xolid Husayniyning "Tog'lar ham sado berdi" romanini asosida misollar keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** sujet, sujet elementlari, ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim, prolog, epilog.

Bugungi adabiyot insonning taqdiri, kechmishi, ichki olami hech bir qolipga sigmaydigan hodisa ekanini, har bir odam oziga xos murakkab dunyo ekanini tushunishda va korsatishda tobora ilgarilab bormoqda. Unda borliq, tabiat, ona zamin muammolarini, mavjud turmush hodisalarini, inson qalbini badiiy idrok qilish, tadqiq etish tendensiyasi teranlashib bormoqda.

Adabiyotda hayot va inson obrazini talqin etishda yangicha ozgarishlar, yangicha tendensiyalar paydo bolishga sabab nima? Avvalo, aytish kerakki, adabiyot bu hayot ifodasi. Shunday bolgandan keyin ijtimoiy-manaviy hayotda yuz bergen barcha yangiliklar, osish-ozgarishlar adabiyotda aks etishi, oz inikosini topishi tayin. Ijtimoiy-iqtisodiy turmushdagi taraqqiyot esa inson xarakterini, uning dunyo haqidagi tasavvurini, talab va ehtiyojlarini doimo ozgartirib boradi. Hayot va inson shaxsi murakkabliklarini badiiy tadqiq etib korsatishda ijtimoiy, manaviy-axloqiy masalalarning ich-ichiga kirib borishda, ulardagi ziddiyatlarni ochib berishda roman va qissa janri katta imkonga ega. Ammo, bu hikoyaning yoki poeziya, dramaturgiyaning adabiy jarayondagi, uning rivojidagi muhim rolini kamsitmaydi. Chunki adabiyotdagi hamma janrlar oz orniga, oz salmogiga, qadriga ega. Hozirgi kunda roman prozaning eng istiqbolli janri sifatida hayotning ijtimoiy-tarixiy, manaviy-axloqiy muammolarini keng kolamda, falsafiy yonalishda, butun murakkabliklari bilan badiiy ifodalab korsatishda yetakchilik qilmoqda deyish mumkin.

Roman "zamondan oziqlanadi, zamon esa undan oz qiyofasini qidiradi, uning vositasida ozini yanada yaxshiroq anglashga harakat qiladi . Bu ayni haqiqatdir. Chunki romanda zamon va davr qiyofasi oz ifodasini topadi. Bu yerda zamonning zamirida insonlar yotganini, tadqiqotchi shuni nazarda tutgani aniq.Shuningdek, aytish mumkin, Ulugbek Hamdamning har bir asari oziga xos syujet-kompozitsion xususiyatlarga ega. Ushbu asarlarning goyaviy badiiy saviyasini korsatish va baholashda syujet va kompozisiyasini organish katta ahamiyat kasb etadi.

Badiiy ijodda syujet va kompozitsiya masalalari qadim-qadimdan olimlar, ijodkorlar diqqatini oziga tortib keladi. Ozbek adabiyotshunoslaridan I.Sultonov, M.Qoshjonov, B.Imomov, S.Mamajonov, O.Sharafiddinovlarning badiiy asar syujeti va kompozitsiyasi xususida qimmatli fikrlari mavjud bolib, bular hozirgi milliy adabiyotimizda yaratilayotgan badiiy asarlarning goyaviy-badiiy xususiyatini organizhda dasturulamal bolishi shubhasizdir.

Syujet deganda asar qahramoni hayotidagi voqealar va ana shu jarayondagi aloqalar, munosabatlar, toqnashuvlar, osish-ozgarishlar tushuniladi. Badiiy asarda syujetning yaratilishini goyaviy mazmun boshqaradi, goyaviy mazmun talabiga uygun holda xarakterlar namoyon boladigan hayot ziddiyatlarini umumlashtiradigan voqealar silsilasi kashf etiladi. Qahramonlarning ozaro murakkab munosabatlari asar syujetini tashkil etadi. Qahramonlarning ozaro munosabatlari esa voqealari-hodisalarda namoyon boladi. Realistik asarda tasvirlangan har bir voqealari-hodisalarda qahramon xarakterining u yoki bu jihatini ochishga xizmat qildiriladi. Shu manoda syujet qahramon xarakterini ochishga xizmat qiladigan asosiy vosita yoki asar qahramonlari xarakterlarining shakllanish jarayonidir.

Badiiy asar syujetida xarakterlar mantigi boladi. Chinakam sanat asarida voqealar, albatta, qahramon xarakterini ochishga boysundiriladi. Badiiy asarlarda voqealar silsilasi muayyan bosqichlar bilan osib borishi yaqqol kozga tashlanadi. Ularning har biri turli ilmiy tushunchalar bilan yuritiladi.

"Tog'lar ham sado berdi" romanida asosan vatanini tark etgan millat vakillarining qismati, insonlarning hayotini barbod qilib yuborgan urush mavzusi yortilgan. Asardagi voqealar qahramonlarning tug'ilib-o'sgan makonda ,balki Qobul,Parij, Kaliforniyada yuz beradi.Ushbu maqolada esa asarning sujeti va uning elementlari haqida so'z boradi.

Sujet (frans. — predmet, "asosga qo`yilgan narsa") badiiy shaklning eng muhim elementlaridan biri sanalib, badiiy asardagi birbiriga uzviy bog`liq holda kechadigan, qahramonlarning xattiharakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimini anglatadi. Umuman, sujetlilik badiiy adabiyotning xos xususiyatlaridan biri bo`lib, barcha turdag'i badiiy asarlarda ham sujet mavjuddir. Faqat shunisi borki, har bir turda, janrda sujet o`ziga xos tarzda namoyon bo`ladi. Masalan, aksariyat lirik she'rlarda voqealar tizimi mavjud emas, biroq ularda o`y-fikrlar, his-kechinmalar rivoji kuzatiladiki, bu ularning sujetini tashkil qiladi. Shuningdek, ba'zan kichik hajmli hikoya va novellalardagi sujet ham "voqealar tizimi" degan ta'rifga muvofiq kelmaydi: bunda bir hayotiy holat ichidagi o'sish, rivojlanish kuzatiladi.

Demak, sujet deganda, asar qahramonlari hayotidagi voqealar va ana shu jarayondagi aloqalar, munosabatlar, toqnashuvlar, osish-ozgarishlar tushuniladi, chunki «Adabiyotning uchinchi elementi sujetdir, yani odamlarning o zaro aloqalari, ular ortasidagi qarama-qarshiliklar, simpatiya (yoqtirish) va antisimpatiyalar (yoqtirmaslik), umuman kishilar ortasidagi munosabatlar u yoki bu xarakterning, tipning tarixiy rivojlanishi, tashkil topib borishidir» (M. Gorkiy).

Badiiy asarda syujetning yaratilishini goyaviy mazmun boshqaradi, goyaviy m azm unning talabiga uyg'un holda xarakterlar namoyon bo'ladigan va hayot ziddiyatlarini

umumlashtiradigan voqealar silsilasi kashf etiladi. Voqealar silsilasi o 'z navbatida asar g'oyasini badiiylashtiradi, uni tiriltiradi.

Badiiy asar sujeti ekspozitsiya, tugun, voqea rivoji, kulminatsiya, yechim singari unsurlardan tarkib topadi. Ekspozitsiya sujetning boshlanish qismi bo`lib, o`quvchini asar voqealari kechadigan joy, qahramonlar, asar konflikti yetilgan shart-sharoitlar bilan tanishtiradi. Aytish kerakki, ekspozitsiya hajm e'tibori bilan turlicha bo`lishi va asarning turli o'rinalarda kelishi, ba'zan umuman tushirib qoldirilishi mumkin. Masalan, "Mehrobdan chayon"da ekspozitsiya juda katta o'rinni — xondan sovchilar kelgunga qadar bo`lgan epizodlarni o'z ichiga olsa, "Qutlug` qon"da u juda qisqa va tugundan keyin beriladi, "Qo`shchinor chiroqlari"da esa ekspozitsiya umuman tushirib qoldiriladi.

"Tog`lar ham sado berdi "romanida ekspozitsiya Saburning farzandlariga ertak aytayotgani bilan boshlanadi. Unda o'g'lining yaxshi hayot kechirishi uchun dev bilan yashashga rozi bo'lган ota haqida hikoya qilinadi. Shu orqali ekspozitsiya Sabur farzandlarini boqa olmagani sababli qizi Parini Nila Vahdatiga sotgani va o'g'li Abdullaning singlisi Paridan ayro bo'lganigacha davom ettiriladi.

Tugun asar voqealarining boshlanishiga turtki bo`lgan voqea, asar konflikti qo`yilgan joydir. Ekspozitsiyadan farqli o`laroq, tugun sujetning zaruriy elementi sanaladi, ya'ni u sujetda har vaqt hozirdir. Faqat ayrim hollarda, xususan, ba'zi xronikali sujetlarda, shuningdek, "ichki harakat" dinamikasi asosidagi sujetlarda u yetarlicha bo`rtib ko`rinmasligi mumkin. Tugun, odatda, asarning boshlanishida, ekspozitsiyadan keyinoq beriladi. Ba'zan, muayyan badiiy-estetik maqsadni ko`zda tutgan holda, uning o'rni o`zgartirilishi ham (masalan, "O'tkan kunlar" romanida Otabek bilan Kumushning daf'atan uchrashib qolishi — asarning tuguni, biroq bu voqea birinchi bo`lim nihoyasida bayon qilinadi) mumkin.

Asarda tugun Sabur qizi Parini Qobulga borib, Vahdatilar oilasida qoldirib kelishida namoyon bo'ladi. Romanning yana bir tuguni Nila Vahdatining erining og'ir kasal bo'lib yotishiga qaramay, hech qanday sababsiz qizi bilan Parijga ketib qolganidir.

Shu voqeadan ko'p o'tmay, men bir juft jomadonni pastga tushirib, haydovchining qo'liga tutqazdim-da, Pariga orqa o'rindiqqa chiqishiga ko'maklashdim. — Nabi, rostdan ham oyim aytganidek, dadamni olib Parijga borasanmi? — so'radi Pari. Men una sohib o'zini yaxshi his qilgan zahoti olib borishimni aytib, jazzi qo'lchalaridan o'pib qo'ydim.

— Omad va baxt yor bo'lsin, bibi Pari, — dedim men. Men Nilaga qovoqlari shishib, surmasi bo'yalib ,pastga tushib kelayotganida ro'baru keldim. U ja-nob Vahdati bilan xayrashib chiqayotgan edi. Niladan sohibimning ahvolini so'radim. Yengil tortdi, chamamda, — dedi u. Garchi bu istak mendan chiqqan bo'lsa-da. — Nila sumkachasining og'zini yopib, yelkasiga osdi. Qaerga ketayotganimni kimsa bilmisin. Shunisi yaxshi. Men hech kimga aytmayman deb so'z berdim. U tez orada menga xat yozishini aytdi. So'ng menga uzoq qarab qoldi. Nila bir kaftini yuzimga qo'ydida: Uning yonida ekanligindan xursandman, — dedi

Tugundan keyingi voqealar zanjiri voqea rivoji deb yuritiladi. Odatda sujet voqealari bosqichma-bosqich rivojlanТИRIB boriladi. Asardagi voqealar rivojining eng yuqori nuqtasi, undagi konflikt benihoya kuchaygan o`rni kulminatsiya deb yuritiladi.

Romanda voqealar rivoji dastlab Nila Vahdatining Parini qiz qilib olishidan boshlanadi. Voqaelar rivoji tartib bilan hikoya qilinmaydi. Asarda bir qancha voqaelar rivoji keltirilib borilaveradi.

Kulminatsiya endi asar voqealarining yechimga tomon intilishini, bir tomonga hal bo`lishini taqozo qiladi. Yechim sujet voqealari rivojining yakuni, ularning nihoyasida qahramonlar ruhiyatida, taqdirida yuzaga kelgan holatdir.

Asarda bir nechta kulminatsilarni ko'rish mumkin. Masalan, Nila Vahdati Eten Bustulerga bergen suhbatida shunday deydi:

Э.Б: Тушунишимча, сиз ярим афг'он, ярим французсиз? Н.В: На, онам француз эди. Парижлик эди.

Э.Б: Отангиз билан Кобулда танишганлар. Со'нг сиз түг'илгансиз. Н.В: На. Улар 1927 йилда подшо саройида расмий бир тушликда танишиб долганлар. О'шанда онам мамлакатдаги ислонотларда Амануллон подшога ҳуқуций маслаҳатчи сифатида Кобулга юборилган бобомга ҳамроҳ бо'либ борган экан.

Э.Б. Биз Нила Ваҳдати хонадонидамиз. Мадам қирқ то'рт ёшда бо'лса-да, ёшлиқ тароватини йо'лотмаган, ниҳоятда жозибали аёл экан. Н.В: Амануллон подшо улар ко'рган энг яхши подшо эди. Э.Б: «Улар»? Сиз о'зингизни афг'он ҳисобламайсизми? Н.В: Ба'зи муаммолари бо'лган турмуш о'ртог'им билан ажралганимдан со'нг

Yechimda asar syujetidagi voqea va qahramonlar taqdiri hal qilinadi. Tugun yechiladi. Kurash xotima topadi. «Oqilona hayot» o'zining adolatli hukmini chiqaradi. « 0'tkan kunlar»da Homid va uning hamtovoqlarining ayanchli o 'limi, Kumushning vafoti, Otabekning shahid bo'lishi yechimga dalolatdir.

Romanda yechim Nila Vahdatining Parijga ketib qolgani sababi quyidagicha oydinlashadi

Э.Б: 1955 йилда Францияга ко'чиб келишингизга нима сабабчи бо'лган? Н.В: Афг'онистонда аёлларга бо'лган муносабатни ко'ра билиб туриб, қизимга бундайин ҳаётни раво ко'рмадим.

Э.Б: Қандай ҳаёт, я'ни? Н.В: Қизимнинг бирор со'з айтишдан, бирор хато ҳаракат қилишдан cho'чиб, бир умр бошини эгиб, озодликдан маҳрум тилсиз қулдек, ма'юс бир ожизага айланишини истамас эдим. Г'арбда эса, о'зимизнинг Францияда ҳам бундайин og'ир ҳаётни бошидан кеснирадиган аёллар қаҳрамон ҳисобланади.

Keyinchalik romanning asl go'yasini, yechimini ko'rishimiz mumkin. Asardagi Rushi ya'ni "Rushana" ismli qizni da'volash uchun kelgan shifokorlarning Afg'onistonni tasvirlashida yaqqol namoyon bo'lgan.

Ко'п о'тмай Идриснинг боши г'увиллаб, ко'з олди коронг'илашди. Уйкуга элитар экан, Руши билан хайрлашганини, бармоqlаридан тутиб, қайта ко'ришишга ва'далашганларини, қизалоқнинг сас чиқармай ко'з ёш то'кканларини бир-бир

о'йлади. Уй томон йо'л олган Идрис Кобулнинг тартибсиз, аралаш-қуралаш ко'чаларини о'згасча ҳис билан хотирлади. Энди эса тартибли, сип-силиқ ко'чалар бо'йлаб Лексусда кетиш унга бир оз г'алати туюла ётган эди. Кобулда Темур иккаласи ҳаётини ишониб топширган до'рқув нима билмайдиган о'спирин ҳайдовчиларни эслаб, Идрис беихтиёр жилмайиб до'йди. Ёнида о'тирган Налил уни саволга ко'миб ташлади: «Кобул хатарлимикан? Нима еб-нима исҳди? Хасталанмадими? Ко'рган нарсаларини суратга олдими?..»Идрис до'лидан келганинча жавоб берарди. Рафиқасига у ердаги снарядлар тешиб ташлаган мактаблар, усти очиқ уйларда жон сақлаётган келгиндишлар, тилянчилар, чироqlарнинг надеб о'чавериши ҳақида со'злаб берди.

Ayrim adabiyotlarda prolog va epilog ham sujet elementi sifatida ko`rsatiladi. Shuningdek, ba'zi asarlar borki, ularda qahramonlarning asarning sujet vaqtidan oldingi yoki keyingi hayoti haqida ma'lumot beriladi(yoki tasvirlanadi)ki, ular ham sujet elementlari qatorida sanaladi. Biroq bu unsurlar sujetga bevosita bog`liq emas, ular ko`proq kompozitsiyaga aloqador elementlardir.

"Tog'lar ham sado berdi" romanida prolog Saburning farzandlariga o'g'lidan ayrılgan va farzandining yaxshi yashashi uchun ajdaho bilan qolishiga rozi bo'lgan ertak aytishi bilan boshlanadi.Romanda epilogi esa Abdulla va Pari bir-biri bilan aka-singil ekanligini biladi.

Asardan shunday xulosaga kelish mumkin: Xolid Husayningning bu ijod mahsuli ham afg'on xalqi hayotiga bag'ishlangan. Asarda xalqning urush tufayli varona bo'lgan hayotini tasvirlab,urush qoldirgan chizgilarni ko'rsatadi.Uy-joyga egalik qilish uchun butun oilani johilona o'ldirgan odamni kitobxonga ko'rsatib , nafratini uyg'otadi.Adib romanda nafaqat qahramonlarning balki davr qirralarini haqqoniy ruhda tasvirlab, yozuvchilikni mohirona egallaganini ko'ramiz.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish
2. Hotam Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent; A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
3. Xolid Husayniy "Tog'lar ham sado berdi" romani.Toshkent 2016
4. K.Turdiyeva. Asar sujeti va kompozitsiyasi haqida. Til va adabiyot ta'llimi, 2001 №3.

Б 23-27